



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№4**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 307 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Candidate of Economic Sciences (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников .....                                                                | 18  |
| <b>Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович</b>                                                                                                           |     |
| O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....                   | 26  |
| <b>To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li</b>                                                                                                        |     |
| Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....                                                                                             | 32  |
| <b>Ismoilova Maftuna Mamat qizi</b>                                                                                                                 |     |
| Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....                                | 38  |
| <b>Primova Shaxlo Jumayevna</b>                                                                                                                     |     |
| Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....                          | 43  |
| <b>Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi</b>                                                                                         |     |
| Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish .....                                                                       | 52  |
| <b>Qodirova Zilola Maxmud qizi</b>                                                                                                                  |     |
| Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....                                                                         | 57  |
| <b>Erkayev Nodir Xudayberdiyevich</b>                                                                                                               |     |
| O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....                                                                  | 71  |
| <b>Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi</b>             |     |
| Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution..... | 76  |
| <b>Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich</b>                                                                            |     |
| Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....                                                     | 89  |
| <b>Tilabova Kumush Farhod qizi</b>                                                                                                                  |     |
| Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish .....                                     | 95  |
| <b>Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich</b>                                                                    |     |
| "Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish" .....                                                           | 101 |
| <b>Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.</b>                                                                                                           |     |
| Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan .....                                                              | 105 |
| <b>To'irova Hamida Umedovna</b>                                                                                                                     |     |
| Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli .....                                                         | 114 |
| <b>Shakhlo Davirova</b>                                                                                                                             |     |
| 2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi .....                                                                                | 120 |
| <b>Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek</b>                                                                                                        |     |
| O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari .....                          | 125 |
| <b>Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi</b>                                                                                                           |     |
| Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri .....                                                                                          | 133 |
| <b>Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li</b>                                                                               |     |
| Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....                                               | 138 |
| <b>Mamayusuf Abdusamatov</b>                                                                                                                        |     |
| Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari .....                                                         | 143 |
| <b>Ataniyazov Jasurbek Xamidovich</b>                                                                                                               |     |
| Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....                     | 150 |
| <b>Ахмедходжаев Равшан Темурович</b>                                                                                                                |     |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish .....                                        | 157 |
| <b>Safarov Alisher Ibrohim o'g'li</b>                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....                                | 163 |
| <b>Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi</b>                                                                   |     |
| Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari .....                                                     | 167 |
| <b>Mirdjalilova Dildora Shuxratovna</b>                                                                                                 |     |
| Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari .....       | 173 |
| <b>Ulasova Oygul Baxtiyorovna</b>                                                                                                       |     |
| Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом..... | 178 |
| <b>Бердиева Дилфуза Ахатовна</b>                                                                                                        |     |
| Improving long-term assets accounting and auditing .....                                                                                | 184 |
| <b>Gulboy Yusupov</b>                                                                                                                   |     |
| Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....                                     | 189 |
| <b>Bozorov Alisher Ro'zimurodovich</b>                                                                                                  |     |
| Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....    | 193 |
| <b>Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur</b>                                                           |     |
| Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar .....                                                      | 200 |
| <b>Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li</b>                                                                                                  |     |
| Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....                              | 206 |
| <b>To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li</b>                                                                                                |     |
| Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....                                               | 214 |
| <b>Bozorova Saxobat Abdujapparovna</b>                                                                                                  |     |
| Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....                                                                   | 219 |
| <b>Садикова Раъно Абдуллаевна</b>                                                                                                       |     |
| Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati .....                         | 225 |
| <b>Salixova G.J</b>                                                                                                                     |     |
| Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....                                                                  | 230 |
| <b>Samandarov Og'abek Alisher o'g'li</b>                                                                                                |     |
| Measuring methodologies of influence of the esg factors .....                                                                           | 235 |
| <b>Tolipova Feruza Alisherovna</b>                                                                                                      |     |
| Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....                                        | 240 |
| <b>Омонов Отажон Журакулович</b>                                                                                                        |     |
| Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish .....                             | 249 |
| <b>Quziev Ravshan Ramazanovich</b>                                                                                                      |     |
| Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....                                               | 253 |
| <b>Каршиева Мохинур Олим кизи</b>                                                                                                       |     |
| Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida) .....                         | 257 |
| <b>Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich</b>                                                                                              |     |
| Умные города как фактор экономического развития.....                                                                                    | 261 |
| <b>Нозима Кахрамоновна Хакбердиева</b>                                                                                                  |     |
| Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....                                                          | 266 |
| <b>Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна</b>                                  |     |
| Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish .....                                           | 270 |
| <b>Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich</b>                                                                                       |     |
| Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....                                         | 275 |
| <b>Fozil Xolmurotov</b>                                                                                                                 |     |
| Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....                                                | 282 |
| <b>Quliyev Begimqul Melikovich</b>                                                                                                      |     |



|                                                                                                                                                   |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....                                                                                       | 289 |
| <b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>                                                                                                              |     |
| Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....                           | 292 |
| <b>Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna</b>                                                                                                          |     |
| Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubi-yatini takomillashtirish .....            | 298 |
| <b>Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich</b>                                                                                    |     |
| To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari ..... | 303 |
| <b>Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi</b>                                                                                   |     |



# TO'QIMACHILIK KORXONALARINING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHI VA YENGIL SANOAT KORXONALARINI MUQOBIL ENERGIYADAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI



**Xolbekova Feruzaxon Rasulovna**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti  
"Iqtisodiyot va menejment" boshqaruv kafedrası dotsenti

**Jalolova Aziza Jalol qizi**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda yengil sanoat, xususan, to'qimachilik korxonalari faoliyatini ekologik jihatdan barqaror yo'lga qo'yish, ularni yashil iqtisodiyot talablari asosida rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada to'qimachilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tish holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, yengil sanoat korxonalarida muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish istiqbollari, texnologik yechimlar va ekologik innovatsiyalar asosida energetik samaradorlikni oshirish choralari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida sohaga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, to'qimachilik sanoati, muqobil energiya, ekologik innovatsiyalar, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish.

**Abstract:** In recent years, the transition of textile enterprises and the broader light industry towards a green economy has become increasingly important. This article explores the current state of adaptation to green economic principles within the textile sector, identifying key challenges and proposing solutions. Special emphasis is placed on the efficient use of alternative energy sources in light industry enterprises, highlighting technological innovations and ecological practices that enhance energy efficiency. Based on the findings, practical recommendations are developed for sustainable industrial transformation.

**Key words:** green economy, textile industry, alternative energy, ecological innovation, energy efficiency, sustainable development.

**Аннотация:** В последние годы актуализировались вопросы перехода предприятий лёгкой промышленности, в частности текстильных предприятий, к модели зелёной экономики. В статье рассматриваются текущие условия и проблемы внедрения принципов зелёной экономики на текстильных предприятиях, а также пути их решения. Особое внимание уделяется вопросам эффективного использования альтернативных источников энергии в лёгкой промышленности, включая технологические инновации и экологические подходы к повышению энергетической эффективности. По итогам исследования предложены практические рекомендации для отрасли.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, текстильная промышленность, альтернативная энергия, экологические инновации, энергетическая эффективность, устойчивое развитие.





## KIRISH

XXI asrning ikkinchi yarmida ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash masalalari global miqyosda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ayni paytda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi nafaqat rivojlangan davlatlar, balki o'z rivojlanish strategiyasida barqarorlikni asosiy mezon sifatida tanlagan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham muhim ustuvorlikka aylanmoqda. Ushbu kontekstda yengil sanoat, xususan, to'qimachilik sohasi atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'lgan tarmoqlardan biri sifatida ekologik transformatsiyaga muhtoj sohalardan biri sanaladi.

To'qimachilik sanoati suv va energiya resurslarining yirik iste'molchisi, shuningdek, chiqindilar manbai sifatida tanilgan. Shuning uchun ushbu sohani ekologik jihatdan sog'lomlashtirish, ya'ni yashil texnologiyalarni joriy etish, resurs tejankor ishlab chiqarish tizimlariga o'tish va muqobil energiya manbalaridan foydalanish kabi chora-tadbirlar zamonaviy ishlab chiqarish modelining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Bu nafaqat ekologik muammolarning oldini olishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda ilgari surilgan strategik hujjatlar va dasturlar, xususan, yengil sanoatni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, ushbu sohada "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, chiqindisiz texnologiyalar asosida ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish, xalqaro ekologik standartlarga mos keluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish kabi masalalar kun tartibiga chiqarilmoqda.

"Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" (P4G) ikkinchi xalqaro sammiti Koreya Respublikasida bo'lib o'tdi. Unda davlatimiz rahbari quyidagilarni ta'kidladi: "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda "yashil taraqqiyot" borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q".

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik sanoatini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish zamonaviy ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda bu sohaga xos ekologik xavflar, resurs tejankorlik muammolari hamda muqobil energiyadan foydalanish mexanizmlari chuqur o'rganilmoqda.

Angliyalik iqtisodchi Michael Jacobs o'zining yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga bag'ishlangan izlanishlarida ekologik barqarorlikni iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylantirish zaruriyatini asoslab bergan. U yashil iqtisodiyotni "resurslar cheklangan sharoitda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni bir vaqtda ta'minlashga qaratilgan tizim" sifatida ta'riflaydi. Bu yondashuv yengil sanoat korxonalari, ayniqsa to'qimachilik tarmog'i uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

Xitoy olimlari Chen, Zhang va Wang 2018-yilda to'qimachilik ishlab chiqarish jarayonida chiqindilarni qayta ishlash orqali energiya sarfini 30 foizgacha kamaytirish mumkinligini isbotlab, bu orqali uglerod izini sezilarli darajada qisqartirishga erishilganini ta'kidlagan. Ularning tadqiqotlari, ayniqsa ishlab chiqarishda yopiq siklli texnologiyalarni qo'llash orqali ekologik va iqtisodiy samaradorlikni birgalikda oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Rossiyalik olim Elena Alekseevna Lapteva yengil sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishida muqobil energiya manbalarining ahamiyati haqida yozar ekan, quyosh, shamol va biomassa kabi manbalardan foydalanish bo'yicha tajribalarni tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, bu texnologiyalar energetik mustaqillikni oshirish bilan birga, ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va ekologik xavflarni cheklaydi.

O'zbekiston olimlaridan Nurbek G'ulomovning 2022-yildagi tahliliy maqolasida respublikadagi to'qimachilik korxonalari faoliyatida yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va ularni kengaytirish mexanizmlari yoritilgan. U, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish orqali ishlab chiqarish barqarorligini oshirish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashni asosiy vazifa sifatida ko'rsatadi.

Shuningdek, 2020-yilda BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan e'lon qilingan "Green Industrial Policy" nomli hisobotda rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekiston kabi davlatlarda sanoatni ekologik transformatsiya qilish yo'llari, muammolari va yechimlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu hisobotda to'qimachilik sanoati resurs tejankorlik va atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatish bo'yicha ustuvor tarmoq sifatida belgilanadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatida yashil iqtisodiyotga o'tish faqat ekologik omil emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham strategik ahamiyatga ega. Bu o'z



navbatida, ishlab chiqaruvchilarni texnologik yangilanishga undaydi, energiya samaradorligini oshiradi va xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan yengil sanoat korxonalarida o'tkazilgan so'rovnomalar, rasmiy statistika ma'lumotlari hamda ilg'or xorijiy tajriba asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili, taqqoslash va grafik usullar yordamida chuqur o'rganilib, muqobil energiyadan foydalanish samaradorligi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

**Yashil iqtisodiyot** – bu zamonaviy iqtisodiy rivojlanish modelidirki, u nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki ekologik barqarorlikni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va inson salomatligiga zarar yetkazmaslikni bosh maqsad qilib oladi. Ushbu konsepsiya asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini atrof-muhit bilan uyg'unlikda shakllantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini ekologik talablar asosida yo'lga qo'yish nazarda tutiladi.

Bunda birinchi galdagi ustuvor vazifa – aholining hayot sifati va turmush darajasini oshirish, ularning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, moddiy ne'matlarni barqaror ishlab chiqarish orqali ekologik muvozanatni buzmaslikdir. Ayniqsa, iqtisodiy faoliyatda tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, ekologik xavfsiz yondashuvlarni joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy strategiyalar doirasida energiya tejamkor texnologiyalardan keng foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish, jamoat transportini elektr quvvatida harakatlanuvchi vositalar bilan almashtirish, ekologik standartlarga javob beradigan binolar qurish ishlari ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ekologik toza, zararli chiqindilarsiz texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga erishish lozim. Bu esa, nafaqat ekologik xavfsizlik, balki aholining sog'lig'ini saqlash uchun ham zaruriy shartlardan biridir.

Yana bir muhim masala – inson ehtiyojlarining cheksizligi va resurslarning chegaralanganligi o'rtasida muvozanatni ta'minlashdir. Buning uchun ishlab chiqarish jarayonlarida tabiiy resurslardan foydalanish darajasini kamaytirmasdan, ularni qayta tiklash, alternativ manbalarga o'tish kabi yondashuvlar asosida barqaror ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish talab etiladi.

Shuningdek, qaysi mahsulotlar ishlab chiqarilishi, qanday texnologiyalar qo'llanilishi va bu mahsulotlar kim uchun mo'ljallangani masalalari ham atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillari asosida ko'rib chiqilishi kerak. Har bir qaror ekologik va ijtimoiy mezonlar bilan uyg'unlashgan holda qabul qilinishi lozim.

Xulosa shuki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi inson, tabiat va iqtisodiy manfaatlar o'rtasida barqaror uyg'unlikni ta'minlashni maqsad qiladi. Har qanday iqtisodiy faoliyatda boshqa muhim qadriyatlarni qurbon qilmasdan ishlash zarur: masalan, infratuzilma qurilishi jarayonida daraxtlarning kesilishiga yo'l qo'ymaslik yoki ishlab chiqarish hajmini oshirish bahonasida atmosferaga zararli gazlar chiqarilmasligi kerak. Aynan shunday yondashuv barqaror rivojlanishning negizini tashkil etadi.

Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi hali ham xalqaro standartlarga nisbatan past darajada. Ayniqsa, suv resurslaridan foydalanishning samarasizligi muammoli bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat yalpi ichki mahsulotining har bir birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlariniki bilan solishtirilganda taxminan uch baravar, Qozog'istonnikidan esa ikki baravar yuqori ekani kuzatilmoqda. Bu esa yashil iqtisodiyotni joriy qilish va ekologik islohotlarni jadallashtirish zaruratini yanada keskinlashtiradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son<sup>1</sup> qarori qabul qilindi.

2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi asosida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, shuningdek, ushbu yo'nalishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikdagi muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarini ta'minlash bo'yicha dasturni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiy o'sishni ta'minlashda quyidagi 6 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha vazifalar belgilangan:

tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;

milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-6303230>



milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash;  
 innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish;  
 barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish;  
 “yashil” iqtisodiyotga o’tish davrida katta ta’sir ostida bo’lishi mumkin bo’lgan aholini va ularning yashash joylarini qo’llab-quvvatlash.

Ushbu ustuvor yo’nalishlar bo’yicha vazifalarning samarali amalga oshirilishi quyidagi tarmoqlararo choralar bilan bir qatorda amalga oshiriladi:

- “yashil” o’sish bo’yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish;
- “yashil” iqtisodiyotga o’tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish;
- tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko’paytirish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O’tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, to’qimachilik sanoatining yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishi sohaning ekologik xavfsizligini ta’minlash, energiya resurslaridan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, muqobil energiya manbalaridan – quyosh, shamol va biogaz texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi, resurslarga bo’lgan bog’liqlikni qisqartiradi va korxonalarni barqaror ishlashiga zamin yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, korxonalarda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish bo’yicha texnik modernizatsiya ishlari nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki iqtisodiy jihatdan ham katta naf keltiradi. Bunday yondashuv esa uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlab, eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Sohaning kelajakdagi barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun bir nechta amaliy choralarni amalga oshirish muhim. Eng avvalo, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarish tizimlariga integratsiya qilish bo’yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va moliyaviy imtiyozlar bilan qo’llab-quvvatlash zarur. Ekologik toza texnologiyalarni xarid qiluvchi korxonalar uchun soliq yengilliklari yaratish, ular faoliyatini kreditlashda qulay shartlar taklif etish, texnologik yangilanishni rag’batlantiruvchi grant va subsidiyalar ajratish sohani harakatga keltiruvchi muhim omillardir. Shuningdek, xorijiy tajribalarni o’rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, energiya auditi tizimini joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda innovatsion texnologiyalarni sinovdan o’tkazish va keng joriy etish zarur. Bularning barchasi O’zbekiston to’qimachilik sanoatini ekologik barqarorlik, energiya mustaqilligi va xalqaro bozorda muvaffaqiyatli raqobat qila oladigan tarmoqqa aylantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Вахобов А.В. ва бошқ. “Яшил” иқтисодиёт. Дарслик. – Т., 2020. – 295 б.
2. Яшалова Н.Н. “Зеленая” Экономика: региональный аспект. – Санкт-Петербург, 2014. – 194 с.
3. Пискунов Н., Пахомов Н.В. Анализ мирового опыта перехода к “зеленой” Экономике. – М., 2022. – 213 с.
4. Jacobs, M. (2008). Green Economy: A UK Perspective. London: Green Alliance.
5. Chen, Y., Zhang, L., Wang, M. (2018). “Circular Economy in China’s Textile Industry: Practice and Prospects”. Journal of Cleaner Production, Vol. 195.
6. Lapteva, E. A. (2019). Ekologicheskiy menedjment v legkoy promyshlennosti. Moskva: Nauka.
7. G’ulomov, N. (2022). “To’qimachilik sanoatida yashil texnologiyalarni joriy etish istiqbollari”. O’zbekiston iqtisodiyoti va innovatsion texnologiyalar jurnali.
8. United Nations Development Programme (2020). Green Industrial Policy: Concept, Policies and Practices. New York: UNDP.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---